

## PEDAGOGIK TAKT

Saparova Shalola Sheraliyevna

*DTPI Pedagogika fakulteti Pedagogika yo 'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada pedagogik takt hamda uni kasbiy faoliyatda qo'llash ko'nikmasi mohiyati to'g'risida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Pedagogi takt, andishali xulq, ta'lim oluvchi, kasbiy mahorat, pedagogik ta'sir ko'rsatish, tajriba, aralashmaslik, taklif, pozitsiya, mas'uliyat, tamoyil, muloqot odobi, umuminsoniy fazilatlar, milliy axloq.*

**Kirish.** Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, o'quv-chilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lchovi, o'quv-chilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir. Pedagogikada o'qi-tuvchining o'quv-chilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgi-lanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi. Shunday ekan, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida hali to'liq shakllanmagan, ta'sirlarga va ruhiy kechinmalarga tez beriluvchi, ota-onasining sevimli farzandi bo'lgan murg'ak qalb egalari bilan muloqot qilayotganligini aslo unutmasligi kerak. Shunday ekan takt axloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, andishali hulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik takt bu o'qituvchining ta'lim oluvchilar oldida o'zini tutishni bilishi, ta'lim oluvchining holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir.

Asosiy qism. Pedagogik takt - o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi. Takt ahloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, andishali xulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik takt bu o'qituvchining talabalar oldida o'zini tutishni bilishi, bolaning holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir. Shunday qilib, pedagogik takt bu o'qituvchining talabalarga nisbatan amalga oshiradigan ta'sirining mezonidir. TAKT VA TAKTIKA Taktika tanlash turli vaziyatlarda turli rollarni bajarish bilan bog'liq. Bu haqida ma'lumotni psixolog A. B. Dobrovich kitoblaridan olish mumkin. Bu to'rtta pozitsiya bo'lib, ular quyidagicha: «yuqoridan pastga», «pastdan yuqoriga», «yonma-yon» va «aralashmaslik pozitsiyasi»

Pedagogik taktning shakllantirish omillari. Insonparvarlik g'oyalariga asoslangan pedagogikada pedagog quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim, deyiladi: Tarbiyalanuvchilarga mehrlilik bo'lish, mehrini ko'rsata olishi; Talabalar hatti-harakatlarining

"ichki prajinalarini" ko'ra olish; Vaziyatni to'g'ri baholay olish; Maqsadga muvofiq ta'sir usulini tanlash; Talabalar bilan samarali muloqot qura olish.

Maqsadga muvofiq ta'sir usulini tanlash; Talabalar bilan samarali muloqot qura olish. Pedagog va talaba pozitsiyalarining to'g'ri kelmasligi ko'p konfliktlarga sabab bo'ladi, shuning uchun konflikt vaziyatlarda qo'llaniladigan signalgan QOID ALARM bilish kerak. Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o'z qo'lga olish bu emosional taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoniy zo'riqishdan, ortiqcha hatti-harakatlardan halos bo'lish. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta'sir ham ko'rsatadi. Shunday qilib, tashqi vazminlik va hotirjamlik! Ikkinchi qoida. O'z hatti-harakatlari bilan sherigiga ta'sir ko'rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o'rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi. Uchinchi qoida. Hamsuhbatning hatti-harakatlari motivlarini tushunishga harakat qilish. Aqliy tahlilning ishga solinishi emosional qizishni pasaytiradi. Yaxshisi holatning mraakkabligini tushunganligini ifoda etish (Men sizning holatingizni tushunib turibman...), o'z holatini tushuntirish (Shu meni o'yiantiryapti...) Ya'ni hatti-harakatni darrov baholamang, oldin tug'ilgan vaziyatga bo'lgan munosabatingizni bildirishga harakat qiling. To'rtinchi qoida. Maqsadni muvofiqlashtirish. Talaba bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni ko'rsatish. Beshinchi qoida. Samarali echim borligiga ishonishingizni namoyish qiling. Va nihoyat, konflikt hal qilinganidan so'ng uni tahlil qilib chiqing (sababi va oldini olish yo'llari). Muloqot qoidalariga rioya qilish o'qituvchiga har bir talaba uchun muvafaqqiyat vaziyatini yaratishga va u bilan samarali hamkorlikni o'rnatishga, talabaning barcha qobiliyatlarini ochib berishga imkoniyat yaratadi.

O'qituvchining rejissyorlik va aktyorlik ko'nikmalari. Pedagogik va aktyorlikning o'zaro o'xshashliklari ko'p. Bu ushbu faoliyatlar mohiyatidan kelib chiqadi. Har ikkala faoliyat negizida insonlar ongiga ta'sir etish masalasi yotadi. Aktyor sahnadagi rol orqali, pedagog turli pedagogik ta'sir vositalari yordamida inson ongida oldindan ko'zlangan o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qiladilar. Bu kasblarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi yana bir narsa - bu har ikkalasi ham ommaga qaratilib, omma nigohida amalga oshirilishidir. O'qituvchining o'quv-tarbiyaviy mashg'ulot, tadbirlarini "ssenariy" sini ishlab chiqishi, unda o'quvchilar faoliyatini boshqarishi bu kasbni rejissyor kasbiga yaqinlashtiradi. O'qituvchilar talabalar diqqatini jamlash, e'tiborini vaqt davomida yo'naltirib turish qanchalik qiyinligini yaxshi biladilar. Shunda o'qituvchilarga aktyorlik mahorati katta yordam beradi. Buyuk ras dramaturgi K.S.Stanislavskiyning aktyorlar bilan ishlash sistemasi pedagogning aktyorlik mahoratini oshirishga katta imkon beradi.

Pedagog ham aktyor kabi o'zining psixik-jismoniy yaxlitlik holatida farliyat vositasi rolini o'ynaydi. Shuning uchun u o'z organizmini sozlashi, uni zarur paytda to'g'ri harakatni amalga oshira olishini ta'minlashi kerak. Boshqaruv uslublari. Psixologiyada turli tipdagi boshqaruvchilarning ijtimoiy psixologik portreti ishlab chiqilgan - bunda ularning boshqaruvida bo'lgan jamoa bilan muloqoti texnikasi tahlil qilinadi. O'qituvchi ham pedagogik jarayonda boshqaruvchi fiinksiyasini bajaradi. Boshqaruv uslublarning uchta asosiy turini o'zaro ta'sir qilish nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Avtoritar uslub. Talabalar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni, hattoki kim qaerda o'tirishigacha o'qituvchi yakka

o'zi hal qiladi Taktika tanlash turli vaziyatlarda xilma-xil rollarni bajarish bilan bog'liq. Bu haqida ma'lumotni psixoterapevt A.B.Dobrovich kitoblaridan olish mumkin. Bu to'rtta pozitsiya bo'lib, ular quyidagicha: "yuqoridan pastga", "pastdan yuqoriga", "yonma-yon" va "aralashmaslik" pozitsiyasi.

"Yuqoridan pastga" pozitsiyasida o'qituvchi mustaqil hal etishni namoyish etadi, mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu pozitsiya "ota-ona" pozitsiyasi. "Pastdan yuqoriga" pozitsiyasi tobelik, shaxsning o'ziga ishonmasligi. A.B.Dobrovich so'zi bilan aytganda, bu "ta'lim oluvchi" pozitsiyasi. "Yonma-yon" pozitsiyasida farosatlilik va vazminlik, vaziyatga qarab ish tutish, boshqalarning ham manfaatini o'ylash, o'zi va ular o'rtasida mas'uliyatni to'g'ri taqsimlash ifoda etiladi. Bu "katta odam" pozitsiyasi. «Aralashmaslik» pozitsiyasi – aralashmaslik, faollikni namoyon etmaslik. Har bir pozitsiyaning qo'llanishi vaziyat talabiga mos tanlanadi. Muloqot ikki tomonlama jarayon bo'lganligi uchun o'qituvchi ta'lim oluvchi rolini ham inobatga olishi shart. O'qituvchining odatiy pozitsiyasi bu hamkorlikda ish olib borayotgan "katta odam", ya'ni ishga aloqador darajani talab qiluvchi pozitsiyadir. Bu pozitsiya ta'lim oluvchida teng huquqli sheriklikni shakllantiradi, o'zaro ishonch muhitini yaratadi. Bunda quyidagi jumalarni qo'llash mumkin: "Sizlar bilan maslahatlashmoqchi edim", "Kelinglar, o'ylab ko'raylik" va hokazo. Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta'lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir. Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Axloqiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo'nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi – jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati; ikkinchisi – o'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati. O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq

normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi. O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'zni va rolini belgilaydi. O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi. O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchanlik va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi haloligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularning chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Muomala odobi o'z tabiati, mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy qonuniyatlar pedagogik jarayondagi muomala odobida namoyon bo'ladi. Pedagogik odob jamiyatda qabul qilingan ma'naviy, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlar pedagogik jarayonda qatnashuvchilar o'rtasidagi muomala odobini tartibga solib, boshqarib boradi. Ijtimoiy munosabatlarning har biri o'ziga xos xususiyatga, mezonlarga ega. Bu xususiyat va mezonlar ijtimoiy faoliyatning sohasi, shaxslararo aloqalarning xarakteri bilan belgilanadi. Muomala odobi kishi bajarishi lozim bo'lgan axloqiy qoidalar bilan shaxs ularni qay darajada qabul qilishi o'rtasidagi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar orasidagi bog'lanishlarga asoslanadi. Muomala odobi bevosita baho beruvchanlik xususiyatiga ham ega. Axloqiy baho esa kishilarning xulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy printsiplar, qoidalar, talablar, an'analarga, urf-odatlariga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalariga muamolasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat, davlat o'qituvchiga, ta'lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo'yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi. Pedagogik jarayonda muomala odobi o'qituvchining faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchilik faoliyatida qo'yiladigan axloqiy talablar, o'z navbatida,



O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy-an'anaviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalariga bog'liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida, unda qatnashayotgan kishilarning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta'lim-tarbiya maqsadi, vazifalari, usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo'ladi. Pedagogik jarayonning o'zida ham faoliyatning turli sohalarida turlicha muomala-munosabatlar mavjud. Masalan, o'quv ishlari sohasida, jamoat toashiriqlarini bajarishda o'quvchilar, bilan sinfdan tashqari ishlarda, dam olish paytlardagi muomala, shuningdek, o'qituvchining Vatanga, xalqqa bo'lgan munosabati o'ziga, xos xususiyatlarga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, agar o'qituvchining bu muomala munosabati o'z professional vazifasini burchini bajarish jarayonida sodir bo'lsa, jamiyat o'qituvchining pedagogik kasbining ijtimoiy mavqeini, unga ma'lum bir huquq va vakolatlar berilganligini nazarda tutadi. Pedagogik etikada muomala odobining biror jihati, masalan, o'qituvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'qituvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin muallim bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari, maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi-bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy insoniy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-harakatlarida, xulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi o'zaro axloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi. Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning sub'ekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi-figurasi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi tizimida o'qituvchi asosiy figuradir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning ob'ekti hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayrixoh, ijobiy hissiyotda bo'lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Pedagogik jarayonda mimika va pantomimika unumli va maqsadga muvofiq foydalana bilish pedagogik texnikaning eng muhim qismlarini tashkil etadi. Mimika – bu tarbiyachi-o'qituvchining o'z fikrlari, his – tuyg'ulari, kayfiyatini va yuz xarakatlari, ifodalari orqali bildirish san'atidir. Ko'pgina tarbiyachi-o'qituvchining yuz ifodalari, ko'z qarashlari bolalarga so'zga nisbatan kuchli ta'sir ko'rsatishligini tajribadan yaxshi bilamiz. Haqiqatdan ham, jest va mimika berilayotgan informatsiyalarning emotsional bo'lishi. Uni bolalar tomonidan yaxshiroq o'zlashtirilishiga imkon beradi. Ma'lumki bolalar tarbiyachi-o'qituvchining yuziga, ko'ziga qarab turadilar, uning ichidagini bilishga, fikrlarini o'qishga, kayfiyatini aniqlashga xarakat qiladilar. Shunday ekan, tarbiyachi-o'qituvchi o'z fikr va his – tuyg'ularini yuzda ifodalay bilishi, shu bilan birga, kerak bo'lganda his – tuyg'ularini yashira bilishi ham lozim. O'z uyida yuz bergan noxushlikdan hosil bo'lgan yomon kayfiyati, xafagarchiligini bog'cha, maktabga olib kelishga xaqqi yo'q. U faqat ta'lim –

tarbiya ishi uchun zarur bo'lgan narsalarnigina yuzdaifodalashi lozim. Bunday his-tuyg'ular qatoriga o'ziga ishonch, ma'qullash, qoralash, norozilik, quvonch, hayratlanish, befarqlik, nafratlanish kabilarni kiritish mumkin. Yuz ifodalarida qosh – ko'zning roli ham katta. Masalan qoshning yuqori ko'tarilishi taajjubni bildirsa, pastga tushishi esa osoyishtalikni, diqqatni bir yerga to'planganligini ifodalaydi. Ko'zga qarab esa quvonch yoki g'azabni bilish mumkin. Ko'z yana ko'p narsalarni ifodalaydi. Shunday ekan, gapirayotganda devorga, derazaga, shipga qarab emas, balki bolalarga qarab gapirishi lozim. Ko'z bolalar bilan tarbiyachi-o'qituvchi o'rtasida doimiy aloqa (kontakt) o'rnatishning muhim vositasidir. Pantomimika – bu gavda, qo'l va oyoq harakatlaridir. Ta'lim –tarbiya jarayonida bularning ham rolikattadir. His – hayajon bilan mashg'ulot o'tayotgan tarbiyachiga razm solsak unda bosh, bo'yin, qo'l, gavda harakatlarining bir – biriga nihoyatda uyg'un ishlayotganining guvohi bo'lamiz. Kishining gavdasi, qomati, xatti-harakatlarida uning o'ziga bo'lgan ishonchi, ichki his-tuyg'ulari yaqqol sezilib turadi. Xuddi shu singari, boshning egilgani, qo'l va oyoqlarning bo'shashganiga qarab kishining kuchsizligi, o'ziga ishonmaganini ham yaqqol sezish mumkin. Pedagog - bolalar oldida tik turish, uyoq-buyoqqa yurish san'atini ham egallashi lozim. Masalan, oyoqlar bir-biridan 12-15 sm uzoqlikda turishi bir oyoq ozgina oldinda bo'lishi kerak, tik turganda tebranmaslik, stul yoki devorga suyanmaslik lozim. Xatto qo'lda keraksiz predmetni o'ynab turmaslik, boshni qashimaslik, quloqni ushlamaslik zarur. Aks holda bular pedagog uchun yomon odatga aylanib qoladi. Qomatni tik tuta bilish uchun mahsus mashqlardan foydalanish mumkin. Masalan, sport bilan shug'ullanish, gavnani devorga tik suyagan holda 10-15 minut turish kabilar. Bundan tashqari, gavda va uning harakatlarini ongli ravishda nazorat qilib turish ham yaxshi natija beradi. Pedagog o'ziga tashqaridan qarab ko'rishi, ayniqsa, bolalar ko'zi bilan qarashi ham lozim. Muloqotni faol bo'lishini ta'minlash maqsadida tarbiyachi-o'qituvchi goh bolalarga yaqinroq borishi mumkin. Bu ular diqqatini to'planishiga olib keladi. Goh orqaroqqa qaytishi mumkin, bu bolalarning erkinroq nafas olishi, dam olishiga imkon beradi. Pedagogik texnika ko'p jihatdan nutq texnikasini egallash bilan bog'liqdir. Chunki nutq texnikasi ta'lim-tarbiya jarayonida ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Sababi bolalar informasialarni asosan nutq orqali qabul qiladilar. Shunday ekan pedagog nutq texnikasini mukammal egallagan bo'lishi lozim. Tajribadan yaxshi bilamizki, tarbiyachi-o'qituvchi tomonidan biror tovush yoki so'zni noto'g'ri talaffuz qilinishi bolalar o'rtasida kulgiga sabab bo'ladi, yoki bir xil ohangdagi nutq ularda zerikishni keltirib chiqaradi, haddan tashqari baland ovoz yoki noo'rin to'xtalishlar /pauzalar/ ularning jahlini chiqaradi yoki tez charchatadi. Ayrim kishilar ovoz ham, uning tembri /baland-pastligi/ ham tabiat in'omidir, uni o'zgartirish mumkin emas deb o'ylaydilar. Lekin ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ovozni sifat jihatdan keskin o'zgartirish mumkin. Bunga tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, qadimgi yunon notig'i va siyosiy arbobi Demosfen maxsus mashqlar orqali o'z nutqini tarbiyalab zamonasining mashxur notig'i darajasiga ko'tarilgan. Adolf Gitler, Fidel Kastro kabi arboblilar ham nutqini maxsus mashq qildirganlar. Hozirgi vaqtda ovozni sozlashning ilmiy asoslangan metodikasi ishlab chiqilgan.

Nutq texnikasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Nafas olish texnikasi.

Ovoz texnikasi.

Diksiya.

Ritmika.

Nafas olish fiziologik hodisa bo'lib odam organizmining hayotini ta'minlaydi. Shu bilan bir vaqtda u nutqimizning energiya manbai ham bo'lib hisoblanadi. Agar nafas olish va nafas chiqarish bo'lmaganda, nutq ham bo'lmagan bo'lur edi. Ovoz nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Bunda diafragma, ko'krak qafasi, ovoz apparati va artikulyasion apparat faol ishtirok etadi. Ovoz kekirdakda – ovoz paychalari yordamida hosil bo'ladi. Ovozning past yoki baland bo'lishi paychalar orasidan o'tayotgan havo oqimining hajmi va kuchiga bog'liqdir. Ovoz artikulyasion apparatda tovush va harflarga ajratiladi. Bunda til va lablar asosiy rolni uynaydi. Pedagog ovozining o'ziga hos xususiyatlari nimada? Avvalo bu tovushning kuchida. Tovushning baland-pastligi esa nutq apparati faoliyatining faolligiga bog'liqdir. Ichkaridan chiqayotgan havo tovush paychalari orasidan qanchalik kuch bilan o'tsa, tovush ham shunchalik kuchli bo'ladi yoki aksincha. Nutqning ikkinchi xususiyati uning eshitilish darajasidir. Bu darajani boshqarish tarbiyachining ixtiyorida buladi: eshituvchilar yaqinda bo'lsa ovoz kuchini pasaytiradi yoki aksincha. Nutqning yana bir xususiyati harakatchanligi bo'lib, sharoitga qarab uni tez o'zgartirilishi tushiniladi, ya'ni goh ovozni ko'tarish, goh tushirish kerak bo'ladi. Uning yana bir xususiyati ovoz diapazoni ya'ni hajmi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra nutq yuqori diapazonli va quyi dapazonli bo'lishi mumkin. Tarbiyachi-o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati jarayonida ovoz gigienasiga albatta rioya qilishi lozim. Aks holda kasb kasalligi – ovoz xastaligiga duchor bo'lishi mumkin. Ovoz apparatining kasallanishi pedagoglarda juda yuqori bo'lib, 40,2 foizni tashkil etadi. Bu kasallikning sabablari juda ko'p bo'lib, shulardan to'rttasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: kunlik ovoz yuklamasi /nagruzkasi/ ning yuqoriligi, ovoz apparatidan to'g'ri foydalana bilmaslik, gigienaga rioya qilmaslik, ovoz apparatining tug'ma kuchsizligi kabilar. Ma'lumki pedagog o'z ish vaqtining 50 foizdan ortig'ida gapirishga majbur bo'ladi. Shuning uchun u ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq so'zlashuvlardan o'zini tiyib, ovoz apparatiga dam berishi lozim. Bundan tashqari, u pedagogika bilim yurtida dars beradigan bo'lsa dars jadvali tuzayotganda 3-4 soat ishdan so'ng bir soat dam berilishi nazarda tutilishi kerak. Ovoz apparati tez ta'sirlanuvchan bo'lib o'ta sovuq yoki issiq, shu bilan birga, achchiq ovqatlar tufayli ham kasallanishi mumkin.

Bir necha soat dars o'tgandan /gapirgandan/ so'ng sovuq havoda tez yurish ham tavsiya etilmaydi. Chunki tez yurganda nafas olish tezlashadi. Va ovoz apparatiga sovuq havo oqimi ko'proq kirib ishdan charchagan ovoz paychalarini kasallantiradi.

Pedagog faoliyatida diksiya ham muhim ahamiyatga ega. Diksiya – bu so'zlar, bo'g'inlar va tovushlarni aniq, burro, ravshan talaffuz qilish demakdir. Diksiya nutq apparatining intektiv ishlashiga bog'liq. Bunda lab, til, tish, qattiq va yumshoq tanglay, osilchoq tilcha, xiqildoq, jag'lar faol ishtirok etadi. Buning uchun ularni hamma vaqt mashq qildirib borish lozim. Hozirgi kunda artikulyasion apparatni ham takomillashtiruvchi maxsus mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

Nutq texnikasida ritmika ham muhim ahamiyatga ega. Ritmika – bu soʻzni aytilishining tezligi va davomiyligi boʻlib hisoblanadi. Nutqning tezligi pedagogning individual xususiyatiga, nutq mazmuni va muloqot sharoitiga bogʻliqdir. Nutq eng tez boʻlganda bir daqiqada /minutda/ 110-120 soʻzni aytish mumkin. Inglizlarda bu raqam 120-150 ga tengdir. Tajribalar shuni koʻrsatadiki, V-VI sinfda oʻqituvchi bir daqiqada 60, IX sinfda 75 tadan ortiq soʻz ishlatmasligi lozim. Bolalar bogʻchasida esa bu raqam 35-40 ni tashkil qilishi kerak. Ayrim soʻzlarning davomiyligi uning uzunligi, kattaligigagina bogʻliq boʻlib qolmay, shu matndagi ahamiyatiga ham bogʻliq. Masalan, soʻz zarurroq, ahamiyatliroq boʻlsa uni choʻzibroq, boʻrttiribroq aytish mumkin. Ayrim qoidalar, taʼriflar, xulosalarni sekinroq tempda gapirish, qolganlarini esa tezroq gapirish mumkin. Nutqda pauzalar ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, har bir pedagog nutq texnikasi ustida hamisha ishlashi, nafas olishni mashq qildirishdan tortib, ovoz, diksiya, ritm ustida tinimsiz ishlashi kerak. Koʻrinib turibdiki, pedagogik texnika koʻplab koʻnikmalar, malakalar, odatlar va harakatlarni mukammal egallashga va ulardan taʼlim-tarbiya jarayonida unumli foydalana olishga bogʻliq ekan. Shunday ekan, har bir tarbiyachi va oʻqituvchi chuqur bilimga ega boʻlishidan tashqari pedagogik texnikani ham egallashi zarur. Ana shundagina u mahoratli pedagog boʻla oladi. Pedagogik texnika tizimida takt tushunchasi boʻlib, uni quyidagicha izoxlash mumkin. Oʻqituvchi va oʻquvchilarning muomalasi jarayonida hissiyotning ikki tomoni (ijobii- salbiy) namoyon boʻladi. Oʻz munosabatlarida ijobiy hissiyotlarga asoslanish, intilishi, qobiliyati katta tarbiyaviy samara beradi. Salbiy xissiy xolatlarni oʻqituvchi maqsad kilib olmaydi. Ijobiy xissiy samaradorlikka erishish uchun vaqtincha vaziyat boʻlishi mumkin. Masalan, xurmatni yoʻqotib quyishdan choʻchish, hayajonlanish va hakazo. Tajribalarni koʻrsatishicha, pedagogik takt oʻqituvchiga bolalar bilan ruhiy aloqaga va ijobiy hissiy muomalaga asos boʻladi.

Pedagogik takt talablari boʻyicha oʻqituvchi oʻzida muomalaning demokratik usuli va muomala madaniyatiga erishadi. Pedagogika va psixologiya fanlarida pedagogik takt boʻyicha koʻplab ishlar yigʻilgan. Albatta bu ishlar oʻzaro munosabatlarni toʻgʻri tashkil etishga, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi. Barcha oʻrganuvchilar pedagogik taktning keng va chuqur tushuncha ekanini, alohida taʼrifni yoʻqligini taʼkidlashadi. Bu umumiy qabul qilingan, oʻziga xos «takt» tushunchasi bilan bogʻliq. Takt soʻzi soʻzma - soʻz «daxl» (prikosnovenie) degan maʼnoni beradi. Ahloqiy toifa boʻlib, kishilararo munosabatlarni tartibga solishga yordam beradi. Xulq - atvordagi nazokatlik (taktga ega boʻlish) insonparvarlik bilan bogʻlik eng ogʻir, qarama- qarshi vaziyatlarda ham boshqa kishilarga boʻlgan xurmatini, eʼtiborini saqlab qola bilishdir. Nazokatli boʻlish har bir kishiga, ayniqsa oʻqituvchiga boʻlgan ahloqiy talabdir. Chunki u, rivojlanuvchi shaxs bilan muomalada boʻladi. Pedagogik takt oʻqituvchining kasbiy sifati, mahoratining maʼlum qismi. Pedagogik taktning umumiy takt tushunchasidan farqi, u fakat oʻqituvchi shaxsi xususiyatiga ega boʻlmasada, bolalarni sevish, mehribonlik, xurmat-eʼtiborni talab qiladi. Yaʼni oʻqituvchilarga muomala yoʻlini topish, tarbiyaviy taʼsir oʻtkazishdir. Umumiy tarzda pedagogik takt oʻqituvchining oʻquvchilarga pedagogik maksadga mos taʼsir etish sermaxsul muomala usulidir. Pedagogik takt mahorat bilan tarbiyalanadi. Oʻqituvchining ruhiy yetukligi, oʻz ustida ishlashi, munosabatlarda yosh va individual xususiyatlarni farqlay



bo'lishi zarur. Pedagogik takti puxta egallashda o'qituvchi bolalarni yaxshi ko'rishi va uni namoyish qila olish, bolalar xulq - atvorini ichki asoslarini, motivlarini ko'ra bilishi, sharoitga kirisha olish, vaziyatni to'g'ri baholash lozim. Umumiy tarzda o'z-o'zini boshqara olish, tug'rilik, boshqalar tajribasiga ijobiy yondashish, pedagogik texnikaning rivojlanishi kabilar zarur. Pedagogik takt muayyan chegaraga ega. Aksincha u teskari xolatni keltirib chiqarishi mumkin. Bolalarga nisbatan xurmat va gamho'rlik, unda o'ziga ishonch, o'z qadr - qiymatini anglash hissini, vujudga keltiradi. Natijada bola tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Xurmat va erkalash talabchanlik va xushyorlikdan ajralib qolmasligi kerak. Talabchanlik bolani individual xususiyatini hisobga olingan xolda bo'lsa o'qituvchining xurmati oshadi. O'quvchining tarbiyalangan darajasiga qarab munosabatlarni qurish zarur. Bolaga e'tibor, ochiq ko'ngillik bola yoshini ortib borishi bilan o'zgarib boradi. Pedagogik takt o'qituvchi xulqini barqarorligini talab etadi. O'quvchi kelajagiga ishonch asosiga quriladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlar o'qituvchining xarakatsizligidan kelib chiqadi. Masalan, o'quvchining xulqiga qarab o'qituvchi tanbex berishi o'rtadagi ziddiyatga sabab bo'ladi. Pedagogik takt darsning hamma bosqichlarida zarur. Bolani bilimni aniqlash va baholashda o'qituvchi o'z xulqiga e'tibor berishi va boladagi xato va nuqsonlarga chidashi shart. Har bir o'qituvchi o'zining tinglovchilarni, uni xurmat qiladiganlarni sevadi, o'quvchining javobini u bo'lmasligi kerak. O'qituvchi sinf xonasida dars o'tayotganda yurib turishi, o'quvchiga dalda berishi, izohlashi muhimdir. Baho quyish bosqichi ham g'oyat muhimdir. Ba'zan ijobiy bahoga ham o'quvchida qonikish bo'lmasligi mumkin. Bunday xolda bahoni adolatli izohlash, asoslash maqsadga muvofiqdir. O'quvchini to'g'ri javobidan mamnun bo'lishi, noto'g'ri javobidan u bilan birga kayg'urishi va uni izohlashi, asoslashi maqsadga muvofiqdir. Bahoda bola muvaffaqiyatsizligini kechirishi, uni bartaraf etishga bolada ishonch hosil qilishi ijobiy natijalar beradi. Tajribali o'qituvchi o'quvchining har bir xarakatini his etib, kuzatib yurmaydi, balki unga ishonchini namoyon qiladi. Pedagogik takt bolaga ishonchini namoyon qilishi bilan ham bog'liqdir. O'qituvchidan muayyan taktikaga ega bo'lishni talab etadi. O'quvchi bilan muomala turli vaziyat va obrazlarda bo'ladi. Muomalada xolislik, aniqlik, darsga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa, qattiqqo'llik kabilar muhimdir. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda do'stona muomaladan foydalanish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006.
2. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Turon-iqbol, 2006. -115
3. Omonov X.T., Madiyarova S.A. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Magistratura uchun darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2009.
4. Sul'tonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
5. Yuzlikaeva E.R., Madiyarova S.A., Yanbarisova E.E., Morxova I.V. Teoriya i praktika obshchey pedagogiki. – T., 2013.